

## PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON, 2024

## **BUDDIZM DINING TA'LIMOTI VA UNING MUQADDAS KITOBLARI**

SHDPI O'QITUVCHISI Azamova Sitora

# SHDPI 2-BOSQICH TALABASI Fozilov Shohruh

## SHDPI 2-BOSQICH TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Buddizm dinining asosiy ta'lilotlari va uning inson hayotiga ta'sirini tahlil etishga bag'ishlangan. Buddizm — Hindistonning qadimiy dini bo'lib, u Siddhartha Gautama (Buddha) tomonidan asos solingan. Maqolada Buddizmnning to'rtta oliy haqiqat, sakkizta yo'l, karma va reinkarnatsiya tushunchalari batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Buddizmnning mohiyati, dunyoqarashi va insonning ruhiy rivojlanishidagi o'rni haqida ham so'z boradi. Buddizmnning turli oqimlari (Mahayana, Theravada va Vajrayana) va ularning farqlari ham tadqiq etiladi. Maqolada ta'lomitning zamонавиј ѡамиятдаги роли ва унинг глобал миқоисда та'siri haqida ham muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Buddizm, Siddhartha Gautama, Buddha, to'rt oliv haqiqat, sakkizta yo'l, karma, reinkarnatsiya, Mahayana, Theravada, Vajrayana, ruhiy rivojlanish, diniy oqimlar.

Buddizm qadimiy xind diniy - falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, amaliyat va nazariyotdan iborat diniy sistemadir. Uning asosi "Hayot - bu azob, uqubatdir" va "najot yo'li mavjud" degan g'oyadir. Buddizm qonuniyatlariga ko'ra inson o'ziga moslashgan mavjudot bo'lib, o'zida tug'iladi, o'zini o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddanining ilk da'vatida mujassamlashgan 4 haqiqatda o'z ifodasini topgan.

**Birinchi haqiqat** - “Azob uqubat mavjuddir”. Har bir tirk jon boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday hayot - qyinoq, azob-uqubatdir.

Tug‘ilish - qyinoq, kasallik - qyinoq, o‘lim - qyinoq, yomon narsaga duch kelish - qyinoq, yaxshi narsadan ayrilish - qyinoq, yomon narsadan ayrilish -qyinoq, o‘zi xohlagan narsaga ega bo‘lmaslik - qyinoq. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog‘liqlik. Hech bir narsa ma’lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddizm dunyonи shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddizm ta'limotiga ko'ra, har qanday narsa yoki hodisa u xox moddiy yoki ma'naviy bo'lsin Dxarma (element)lardan tuzilgan. Bu elementlar o'z xususiyatiga ko'ra harakatsiz bo'lib, ularni harakatlantiruvchi kuch insonning xayollar va so'zlaridir. ob'ektiv haqiqat bu doimiy ravishda o'zgarib turuvchi Dxarmalar oqimidir. Harakatdagi Dxarmalar mavjudligining 5 formasini yaratadi: tana, sezgi, his-tuyg'u, harakat, anglash. Bu besh forma insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi va borliq bilan aloqa bo'ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Bu narsa insonning o'limi bilan tugallanadi. Insonni tashkil qiluvchi besh forma (skandx) o'z navbatida qayta tug'iladi. yangi tananing xususiyatlari asos bo'luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumroxlik, xoxish, istak va norma. Bu protsess "hayot g'ildiragi"ni tashkil qiladi. "Hayot g'ildiragi"da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo'ladi.

**Ikkinchı haqiqat** - “qiynoqlarning sabablari mavjuddir”.

Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi va doimo ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug'ilish, yangitdan qyinoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Buddistlar fikricha Buddadan keyin hech kim Nirvana holatiga erisha olmagan.

**Uchinchi haqiqat** - “qynoqlarni tugatish mumkin”. yaxshi yoki yomon niyatlar, intilishlardan butunlay uzilish Nirvana holatiga to‘g‘ri keladi. Bu holatda inson qayta tug‘ilishdan to‘xtaydi. Nirvana

holati buddistlar fikricha “Hayot g‘ildiragidan” tashqariga chiqish. “Men” degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg‘ullarini to‘la tugatishdir.

**To‘rtinchи haqiqat** - qyinoqlardan qutilish yo‘li mavjuddir. Bu yo‘l - “Sakkizta narsaga amal qilish, to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri harakat qilish,. to‘g‘ri muomalada bo‘lish, fikrni to‘g‘ri jamlash”. Bu yo‘ldan borgan inson Buddha yo‘lini tutadi.

Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi. Buddizm ta’limoti asosan uch qismdan iborat: 1. meditatsiya; 2. axloq; 3. donolik.

Meditatsiya.

1. To‘g‘ri tushunish;
2. To‘g‘ri niyat qilish;
3. To‘g‘ri o‘zini tutish
4. To‘g‘ri anglash
5. To‘g‘ri harakat qilish
6. To‘g‘ri muomalada bo‘lish
7. To‘g‘ri fikr yuritish
8. To‘g‘ri gapirish

Axloq normalari - Buddha “Pancha Shila” besh nasixati,

1. Qotillikdan saqlanish
2. O‘g‘rilikdan saqlanish
3. Gumroxlikdan saqlanish
4. Yolg‘on, qalbaki narsalardan saqlanish
5. Mast qiluvchi narsalardan saqlanish

Donishmandlik - bu buddizmnning asosiy maqsadi bo‘lib, narsalar tabiatini to‘g‘ri tushunish.

Ilk Buddizmnning dxarmalar tabiatini haqidagi mavxum metafizik asoslari buddizmda ikki oqim “Xinayana” (kichik g‘ildirak) va “Maxayana” (katta g‘ildirak) yuzaga kelishiga olib keldi.

Xinayana ta‘kidlashicha dxarmalar tabiatini o‘rganish va nirvanaga erishish ma’naviy yo‘l bilan bo‘ladi. Bu yo‘l juda og‘ir va faqat monaxlargina nirvana holatiga etishi mumkin. Maxayana esa Buddha tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli jonzot formasiga kirishi mumkin va hayot zanjiridagi barcha

uni o‘rganishi, anglashi mumkin deydi. Bu narsa cheksiz Buddha ramlarini, xudolarni kelib chiqishga sabab bo‘ldi. Bu xudolarga ishonish yo‘llari barchaga mumkin. Shu sababli “Katta g‘ildirak” deb nomlanadi. Buddaviylik oqimlaridan yana biri -Lamaizm18 (tibetcha-eng ulug’) VII-XIV asrlarda Tibetda Mahayana yo‘nalishi ta‘sirida vujudga kelgan. Lamaizmning oliv diniy rahnamosi Dalay-Lama (tibetcha-“dengizdek ulug’ lama”) tug‘ilgan mavjudotlarning eng ulug’i, “boddhisattva”ning Yerdagи ko‘rinishi, tirik xudo hisoblanadi.

“Lamaizm” tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi, Rossiyaning, Buryatiya, Tuva, Oltoy kabi hududlarida ham keng tarqalgan.

Buddizm dini insonning ruhiy va axloqiy rivojlanishiga qaratilgan chuqur va tizimli ta’limotdir. Siddhartha Gautama tomonidan asos solingen Buddizm, uning to‘rtta oliv haqiqat va sakkizta yo‘l kabi

asosiy tushunchalari orqali insonlarga dunyoqarash, o'zini anglash va xotirjamlikka erishish yo'lini ko'rsatadi. Karma va reinkarnatsiya tushunchalari orqali Buddizm, insonning amallari va ularning natijalari o'rtasidagi munosabatni ta'kidlaydi. Shuningdek, Buddizmning turli oqimlari, masalan, Mahayana, Theravada va Vajrayana, o'zining noyob yondashuvlari bilan bir-biridan farq qilsa-da, ularning hamma maqsadi insonning azob-uqubatlardan qutulishi va ma'naviy ozodlikka erishishdir.

Buddizmning zamonaviy jamiyatdagi roli ham juda muhimdir. Uning o'z-o'zini rivojlantirish, ichki tinchlik va harmoniya yaratishga oid ta'limotlari bugungi kunda ko'plab insonlarga yordam bermoqda. Buddizm, o'zining universal insonparvarlik tamoyillari orqali, turli madaniyatlar va dinlar o'rtasida muloqot va hamjihatlikni rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi. Shu bilan birga, Buddizmning ta'limotlari, insonlarni o'z ichki dunyosini tushunishga, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishga va mehr-oqibatlari hayot tarzini yuritishga undaydi.

## Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.
1. -T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. -304 b.
2. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. -T.: OOO «Complex print», 2020. -198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. -T.: Lesson Press, 2021. -128 b.
5. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
6. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
7. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
8. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
9. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
10. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
11. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
12. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
13. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
14. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

**ANDIJON ,2024**

15. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.